



## “KOMPOZITOR LYUDVIG VAN BETXOVEN IJODIDA FORTEPIANO CHOLG‘USI UCHUN YARATILGAN ASARLAR”

**Yuldasheva Aziza**

*O‘zbekiston davlat konservatoriysi*

“Musiqa san’ati” fakulteti “Musiqashunoslik” bo‘limi  
1 kurs talabasi

**Annotasiya:** *Mazkur maqolada buyuk nemis kompozitori Lyudvig van Betxovennning fortepiano uchun yaratgan asarlari aks ettirilgan.*

**Аннотация:** В данной статье представлены формепианные пьесы великого немецкого композитора Людвига ван Бетховена.

**Abstract:** This article presents the piano pieces of the great German composer Ludwig van Beethoven.

**Kalit so‘zlar:** *Musiqa, Uslub,Ijod.*

**Ключевые слова:** *Музыка, Стиль, Творчество.*

**Keywords:** *Music, Style, Creativity.*

L.Betxoven ijodida musiqa olami o‘ziga xos yangi ohang yo‘nalishlarni kashf etdi. Uning yuksak g‘oyalari hayotdagi vaziyatlar bilan bog‘langan holda musiqa bilan ifoda etildi. Uning ijodi XIX asr boshlarida bo‘lib o‘tgan turli tarixiy siyosiy hayot bilan bog‘liq holda shakllandi. L.Betxovendan oldin ijod qilgan barcha kompozitorlaming eng namunaviy va o‘ziga xos yo‘nalishlarni o‘zida mujassam etgan kompozitorlardan biri hisoblanadi. Uning musiqasida ilk bor qahramonlik xususiyatlari namoyon bo‘ldi. Bu qahramonlik L.Betxoven ijod qilgan barcha janrlarda asosiy mavzu bo‘lib asaring mazmuni va g‘oyasini ifodalagan.

Keln shahrida L.Betxoven sakkiz yoshida birinchi konsertini beradi. O‘n ikki yoshida L.Betxoven oilasini boqish uchun turli ishlar qilgan. 1782-yilda birinchi ustoz Kristian Nefedan saboq ola boshlaydi. Bu uning hayotidagi baxtli voqealardan biri edi. Nefe qobiliyati va musiqiy iste’dodini payqab, u bilan jiddiy mashg‘ulotlar o‘tkaza boshladи. Nefe iste’dodli tarbiyachi, kompozitor va organchi edi. Aynan u L.Betxovenni nemis kompozitorlari Iogann Sebastyan va Fillip Emanuel Bax, Gendel, Gaydn, Mosartning betakror asarlari bilan tanishtirildi. L.Betxovennning iste’dodi kundankunga rivojlana boshladи va ustozni tomonidan har tomonlama qo‘llab turildi. Ustozi yordamida

birinchi asarlari chop etildi. Uchta sonata klavesin uchun va fortepiano uchun variatsiya. Nefe maslahatiga ko‘ra, L.Betxoven lotin, fransuz va italyan tillarini o‘rgandi. 1787-yillarda u kompozitor va pianist sifatida tanila boshladи. L.Betxoven Venada ilk bor pianinochi sifatida tanildi. Venaliklarni L.Betxovennning boy fantaziysi, shiddatli improvizatsiyasi hayratga solar edi. L.Betxoven yangi ixtiro qilingan fortepiano cholg‘usini o‘scha davrda mashhur bo‘lgan klavesindan afzal

ko‘rdi. Fortepiano XVIII asr boshida italiyalik Kristofori tomonidan ixtiro qilingan edi. Fortepianoning jarangdor kuchi shu bilan birgalikda mayin kuychan ovozi L.Betxoven asarlaridagi g‘oyani ifoda etish uchun zarur edi. L.Betxoven fortepiano cholg‘usini mukammal o‘rganib tinglovchilarni maftun etdi. L.Betxovenning kompozitor sifatida tanilishi ham Venaliklar uchun g‘ayri tabiiy ohanglar ijodkori sifatida, undan oldin bahramand bo‘lgan Gaydn, Mozartning yengil jarangdor ohanglaridan keyin o‘ziga xos bo‘lib tuyuldi. Vena davrida

L.Betxoven tomonidan yaratilgan fortepiano sonatalaridan № 8 “Potetik” (1798), № 14 “Lunnaya”, simfonik asarlari dan № 3 “Qahramonlik” kompozitorning yangi tuyg‘u, yangi g‘oya shu bilan birgalikda hali tinglovchilarga tushunarsiz bo‘lgan, lekin tinglovchilarni maftun etgan musiqiy olami va tovushlari hukmronlik qilar edi. L.Betxovenni Vena klassiklari Gaydn va Mozart bilan bir qatorga qo‘ya boshladilar. 1802-yildan boshlab, uning hayotida ma’lum ijodiy burilish bo‘ldi. U endi voyaga yetgan barkamol kompozitor sifatida ajoyib

nodir asarlar yarata boshladi. Birin-ketin 8 ta simfoniya, «Yegmont», «Koriolan» uverturalari, «Appassionata va kreyser sonatasi» (skripka va fortepiano uchun), diqqatga sazovor fortepiano sonatalari va konsertlari, skripka va orkestr uchun konsert, kvartetlar, hamda «Fidelio» operasi yaratildi. Betxoven Fidelio operasiga to‘rt variantda uvertura yozib, ulardan eng yaxshisi «Leonora»ni kiritdi.

Betxovenning ijodi sonata simfonik majmusni eng yuqori pog‘onaga olib chiqadi. Uning ijodida simfoniya xos bo‘lgan kontrast ya’ni “qarama-qarshilik” kurash obrazlariga aylanadi.

Lyudvig van Betxovenning sonata va simfoniyalari hajman kattalashib keladi. Ularda rivojlovda bo‘lgan kurash reprizada ham yakunlanmay kodada davom etadi. L.Betxoven yoshligidan buyuk fransuz inqilobining g‘oyalari bilan yashagan. Insoniyatning ezgulik uchun kurashi, haqiqat uchun jon berish obrazlari uning ijodida yetakchilik qiladi. Nohaqlik bilan kurash, ideal qahramonlik yaratish mavzulari uning fortepiano uchun yozgan 8-sonatasida, Appositionatada ko‘zga tashlanadi. Kompozitor hayoti davomida 32 ta sonata yozib qoldirgan. Mazkur sanatalar kompozitor uchun labaratoriysi bo‘lib xizmat qilgan. O‘zining barcha yangi fikrlarini sonatalarida ishlab chiqarib keyin simfoniyalariga ko‘chirgan. L.Betxovenning sonatalari Betxovenning asosiy stilistikasini belgilab beradi. Birinchidan, sonatalarning barcha qismi intanatsion umumiylitka ega, bunga yorqin misol 8- sonata. Ikkinchidan, sonatalarda kontrastlik bilan chegaralanmaydi, keskin to‘qnashuv kurash kuzatiladi. Uchinchidan, rivojlov reprizaga ham kodaga ham ta’sir etishi mumkin. To‘rtinchidan, kuylarning oxangliligi, cholg‘uliligi bilan ajralib turadi. Sonatalarda shakl aniq bayon etiladi. Sonatalarni ikki yoki uch qismliligini kuzatish mumkin. Lyudvig van Betxovenning 32 ta sonatasini 3 bo‘limga ajratish mumkin. 1- sonatasidan boshlab, 7-sonatasigacha Betxovenni o‘ziga xos uslubini izlash jarayonini qamrab oladi. 8-sonatasidan 24-sonatasigacha o‘z uslubini shakllantirgan, va oxirgi 8 ta sonatasida romantizm hususiyatlari sezilib turadi. Betxovenning oxirgi sonatalarida kurash mavzusi o‘rniga ichki dunyoga sho‘ng‘ish, xis tuyg‘ularga berilish yaqqol namoyon bo‘ladi. Betxoven romantizmga asos yaratadi.

Betxoven o‘zining so‘nggi sonatalarini zamonaviy royal uchun yozdi, bu cholg‘u sadolanish diapazonini oxirigacha kengaytirdi. O‘zining original fortepiano uslubini yaratib, Betxoven o‘sha paytgacha ma’lum bo‘lmagan chetki registrlamaing ifodaviy xususiyatlarini ochib berdiki, bu bilan u keng havoyi makon taassurotini yaratdi. U kuyni quyi registrlarga o‘tkazib, quyi, o‘rta va yuqori registrlarning ohangdorlik (kuy) ahamiyatini muvozanatga keltirdi. Pedalning turli-tuman tarzda ishlatilishi fortepiano Sadolanishidagi dinamik va turfa rangligini orttirdi.

Kompozitorning 32 ta sonatasidan eng mashhurlari: 8-sonata “Potetik”, 14-sonata “Oy”, 23-sonata “Appositionata” kabi sonatalaridir.

«Patetik sonata»ni (op.13 c-moll) Betxoven 1798-yilda yozgan. Betxovenning o‘zi bu sonataga «Katta patetik sonata» nom qoysan. Ushbu sonatada taassurotli, zulmatli dialoglar juda yorqin va ta’sirli sadolanadi. Sonataning birinchi qismi og‘irakkordli tantanavor mavzu bilan sadolanadi.

Shu o‘rinda Betxovenning 14-sonatasini ham aytib o’tish joiz. Ushbu sonata ham juda mashhur hisoblanib, hozirgi kunda ham jahon sahnalarida mohir fortepiano ijrochilar tomonidan ijro etib kelinmoqda. Ushbu sonata ham 3 ta qismdan iborat. 1-qismi adagio, 2-qismi allegretto, 3-qismi final hisoblanib, sonata allegro shaklida yozilgan.

23-sonata “Appositionata”. Ushbu asar ham Betxovenning eng mashhur asarlaridan hisoblanib. Jahon asarlari orasida o‘z o‘rniga ega sanaladi. Aynan shu asar mening eng sevimli asarimdir. Ushbu asarni eshitganingizda haqiqiy mohirona tarzda yozilganini ko‘rishimiz mumkin. Aynan shu asarni Rossiya xalq artisti Denis Matsuyev tomonidan mohirona tarzda ijro etilgan. Ushbu sonata ham 3 qismdan iborat. 1-qismi sonata allegrosida, 2-qismi andante, 3-qismi final. Ushbu asar borasida Betxovenning o‘zidan so‘rashganida, Shekspirning “Bo‘ron ‘asarini o‘qinglar deb aytgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.Madrimov “Musiqa tarixi”
2. X.A.Trigulova “Xorijiy musiqa adabiyoti”
3. B.Yoqubov “Xorijiy mamlakatlar musiqa adabiyoti”